

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT  
SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI

"Tasdiqlayman"  
O'zbekiston davlat  
san'at va madaniyat  
instituti rektori



N.B. Sayfullayev

2025-y

"Kelishildi"  
O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va  
innovatsiyalar vazirligi



"18" iyul 2025-y

"Kelishildi"  
O'zbekiston Respublikasi  
Madaniyat vazirligi



"17" iyul 2025-y

IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI  
VA BAHOLASH MEZONI

60211100-Aktyorlik san'ati: musiqali teatr aktyorligi  
ta'lif yo'nalishi uchun

1. Aktyorlik mahorati fani bo'yicha
2. Vokal va sahna nutqi fanlari bo'yicha

Dastur O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Badiiy, o‘quv-uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan. 2025-yil 30 may 10-sonli majlis bayoni.

### **Tuzuvchilar:**

- |                 |   |   |
|-----------------|---|---|
| R.Usnatov       | - | O‘zDSMI “Musiqali teatr san’ati” kafedrasi mudiri, professor v.b. |
| Sh.Muhammadiyev | - | O‘zDSMI “Musiqali teatr san’ati” kafedrasi dotsenti               |

### **Taqrizchilar:**

- |              |   |   |
|--------------|---|---|
| M.R.Yusupova | - | O‘zDSMI “Estrada va ommaviy tomoshalar san’ati” kafedrasi professori, san’atshunoslik fanlari nomzodi |
| A.S.Bekjonov | - | O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, “Estrada va ommaviy tomoshalar san’ati” kafedrasi dotsenti    |

## **Kirish**

60211100 – Aktyorlik san’ati - (musiqali teatr aktyorligi) bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga kiruvchi abituriyentlarning kasbiy (ijodiy) imtihoni dasturi hujjatlarni qabul qilish va kirish imtihonlar “O‘zbekiston Respublikasi Oliy o‘quv yurtlariga qabul qilish qoidalari”ga muvofiq o‘tkaziladi.

Ixtisoslik bo‘yicha kirish imtihonlar har bir ixtisos uchun ta’kidlangan qabul talablariga muvofiq ravishda o‘tkaziladi.

Ixtisoslik bo‘yicha imtihon o‘tkazilishining ketma-ketligi har bir Oliy o‘quv yurtining qabul komissiyasi tomonidan o‘rnatalidi va har yili qabul qilish qoidalari ko‘rsatiladi.

60211100 – Aktyorlik san’ati (musiqali teatr aktyorligi) bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga o‘qishga kirayotganlar, ijodiy va tashkiliy ishlarga qobiliyatli hamda asarni tanlash va sahnalashtirilishda zaruriy jihatlarni aniqlay oladigan bo‘lishi kerak.

## **Fanning maqsadi va vazifalari**

60211100 – Aktyorlik san’ati (musiqali teatr aktyorligi) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning aktyorlik mahorati layoqatini ijodiy sinovlar orqali fanlaridan ijodiy hamda amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Fanning vazifasi – abituriyentlarga mazkur soha bo‘yicha zamonaviy ta’lim metodlari orqali bilim berish, rol konsepsiyasini anglatish, ijro etayotgan materialida janr, xarakter, ifodaviy vositalardan foydalanishni o‘rgatishdan iborat.

Abituriyent bu bosqichda quyidagi dasturlarni tayyorlashi lozim:

- 1) ariya (biron bir milliy musiqali dramadan qahramon ariyasi);
- 2) maqom, katta ashulla, klassik avjli qo‘shiqlar;
- 3) masal (I.V.Krilov, S.Mixalkov, M.Xudoyqulov, A.Obidjon va h.k. ijodidan)
- 4) monolog (biron bir p’esadan qahramon monologi);
- 5) she’r;
- 6) qo‘shiq;
- 7) raqs;
- 8) hayvonot olami (hayvonot xulq-atvori) - kuzatishlar asosida etyud;
- 9) yakka etyud - (abituriyentning yakka o‘zi bilan sahnada sodir bo‘layotgan so‘zsiz voqeа ko‘rinish);

Bundan tashqari abituriyent qiziqqan soha yoki janr bo‘yicha o‘zining tayyorlab kelgan mustaqil nomerini ham namoyish etishi mumkin. Masalan:

1. Plastika
2. Pantomima

3. Buyumlar jonlanishi asosida etyud
4. Parodiya (taqlid san'ati)
5. Musiqa san'ati

### **Abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar**

**Aktyorlik mahorati** fanidan abituriyent ijodiy va qo‘shiqchilik qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Abituriyentning ijodiy salohiyati va sahnaviy tarovati (insoniy jozibadorligi, xislati, tabiat, yoshi, tashqi ko‘rinishi, yoqimtoyligi va ichki madaniyati, hayotiy tajribasi, tasavvurining rang-barangligi, ta’sirchanligi, hayotiy voqeа va hodisalarga munosabati va ularni sahnada aks ettira olish salohiyati mavjud bo‘lishi kerak.

**Vokal** fanidan musiqiy savodi, eshitish qobiliyati va ritm, an’anaviy qo‘shiqchilik ijrosi, ovoz tembri va diapazoni, musiqali dramalardan ariya ijrosining talabga javob berishi tekshiriladi.

**Sahna nutqi** fani bo‘yicha abituriyentni sinash davrida “Sahna nutqi” kafedrasi pedagoglari tomonidan uning ovozi va nutqini tekshirish amaliy tarzda o‘tkaziladi. Sog‘lom ovozning mavjudligi, talaffuzning tozaligi, ravonligi, burroligi, aniqligi (nutq a’zolaridagi organik va noorganik kamchiliklarning yo‘qligi o‘rganiladi. Sahna nutqi - o‘qishga kirayotgan shaxsning ijodiy maylini aniqlashga, teatr va kino sohasida keljakda nutqi bo‘yicha bilimlarini to‘g‘ri ishlata olishiga, asosiy ko‘nikmalarga to‘g‘ri moslasha olishini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

#### **Kasbiy (ijodiy) imtihonlar quyidagi mezon asosida baholanadi:** **Aktyorlik mahorati fani bo‘yicha**

<b>№</b>	<b>Talabning mazmuni</b>	<b>Maksimal ball</b>
1.	Abituriyentning ijodiy salohiyati, ichki madaniyati, ijodiy tassavvurining rang-barangligi, ta’sirchanligi	0-8
2.	Abituriyentning sahnaviy tarovati, jozibadorligi, tashqi ko‘rinishining nuqsonlardan xoli ekanligi	0-10
3.	Dunyoqarashi (ijtimoiy – siyosiy, madaniy, adabiyot, san’at sohasiga oid bilimlar darjasи)	0-8
4.	Sahna madaniyati	0-5
5.	Ijro uslubi va mahorati (qo‘shiq, she’r, g‘azal, monolog, masal, hikoya)	0-10
6.	Ijro mahoratidagi ta’sirchanligi, tabiiyligi, o‘ziga xosligi	0-5
7.	Sahnaviy sezgi (sahnaviy ko‘rish, eshitish va idroklash) qobiliyati	0-5
8.	Abituriyentning sahnaviy tasavvuri, berilgan shart-sharoitda tabiiy xatti-harakat qilish qobiliyati, sahnaviy ishonch layoqati	0-5
9.	Abituriyentning sahnaviy plastikasi, raqs (nafis harakat, tana	0-5

	harakatlarining ifodaviy ta'sirchanligi, ma'nodorligi)	
10.	Abituriyentning improvizatsiyaga moyilligi	0-8
11.	Ariya, maqom, katta ashulla, klassik qo'shiqlar mahoratlari ijrosi. Etyud ijrosi	0-15
12.	Odob-axloqi, muomala madaniyati va estetik didi	0-4
13.	Abituriyentning musiqani eshtishi	0-5
	<b>Jami:</b>	93

### **“Vokal” va “Sahna nutqi” fanlari bo‘yicha**

1.	Abituriyentni tonda turishini tekshirish	0-4
2.	An'anaviy qo'shiqchilik ijrosi va sozandalar bilan birgalikdagi uyg'unlik	0-5
3.	Abituriyentning musiqiy savodxonligi	0-5
4.	Ovoz diapazoni	0-5
5.	Vokal asarlari ijrosi jarayonida konsertmeyster bilan birgalikdagi uyg'unlik	0-6
6.	Musiqali dramalardan ariya ijrosi	0-7
7.	Abituriyentning musiqiy xotirasi	0-4
8.	Abituriyentning musiqiy ritmini tekshirish	0-4
9.	Talaffuzning tozaligi, ravonligi, burroligi, aniqligi (nutq a'zolarida organik va noorganik kamchiliklarning yo'qligi)	0-4
10.	Ovozning sog'lomligi va jarangdorligi	0-3
11.	Nutqiy ifodaviylik va ta'sirchanlik (nutqiy eshitish qobiliyatining mavjudligi)	0-4
12.	Badiiy so'z ijrochiligi mahorati (she'r, g'azal, masal, monolog va nasriy – hajviy asar)	0-4
13.	Badiiy va she'riy asarlardagi tasavvurning mavjudligi (mutolaa qilish savodxonligi)	0-4
14.	Noyob va betakror nutq, sohir ovozga egaligi	0-4
	<b>Jami:</b>	63

### **Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish tartibi**

60211100 – Aktyorlik san'ati (musiqali teatr aktyorligi) bakalavriat ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida belgilangan kunlarda “Aktyorlik mahorati”, “Vokal” va “Sahna nutqi” fanlaridan yagona ijodiy imtihon oluvchi hay'at a'zolaridan iborat (barcha fanlardan bir komissiya a'zolari guruhi tuziladi, chunki “aktyorlik mahorati”ni spetsifik jihatlarini hisobga olgan holda aktyorlik mahorati o'qituvchisi bilan birgalikda abuturiyentni vokal va sahna nutqi bo'yicha qobiliyatları tekshiriladi) guruhga ijodiy imtihon topshiradi. Qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan guruhlar 30 nafar abituriyentlardan iborat bo'lib kasbiy

(ijodiy) imtihonlar maxsus quollar bilan jihozlangan auditoriyalarda o'tkaziladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihon raisi, kurs oluvchi pedagog, nutq, vokal xamda raqs mutaxassislarining tekshiruvi bilan o'tkaziladi. Sog'lom ovozning mavjudligi, ijodiy salohiyatga egaligi, organik yetishmovchiliklarining yo'qligi o'rganiladi.

### **Apellyatsiya tartibi**

Abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishslash hay'atiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin.

Murojaat mazmuni faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

### **Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari**

1. Qobilov N. Aktyorlik mahorati – Navro'z nashriyoti-T.: 2020.
2. Qobilov N, Muhammadiyev Sh. Aktyorlik mahorati. Darslik. Fan va ta'lim poligraf nashiryoti – T.: 2022.
3. Muhamedova G, Usnatov R. Aktyorlik mahorati. Navro'z nashiryoti – T.: 2020.
4. Djon Benedikt. Aktyorning o'z ustida ishlashi (K.S.Stanislavskiy) - 2-qism. Routledge. 2008.
5. Lenard Petit. For the Actor (Aktyor texnikasi) - Taylor & Francis , 2009.
6. Usnatov R. Aktyorlik sheberligi. – Navro'z nashriyoti. T.: 2020.
7. Yorbekov E. Aktyorlik mahorati. – Navro'z nashriyoti-T.:2019.

### **Internet saytlari**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.infocom.uz](http://www.infocom.uz)
3. [www.uzreport.com](http://www.uzreport.com)

**60211100-Aktyorlik san'ati (musiqali teatr aktyorligi) ta'lif  
yo'nalishidagi" Kasbiy (ijodiy) imtihonlar dasturi va baholash mezoni" professor  
v.b R.Usnatov, dotsent Sh.Muhammadiyevlar tomonidan tuzilgan dasturiga  
TAQRIZ**

Bo'lajak musiqiy aktyorlarni qabul qilish, yuqori malakali kadrlar talabiga da'vogarlarni kasbiy (ijodiy) imtihonini o'tkazish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Aktyorlik san'ati: 60211100-Aktyorlik san'ati (musiqali teatr aktyorligi) ta'limga hujjatlarni qabul qilish va kirish imtihonlar "O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlariga qabul qilish qoidalari"ga muvofiq o'tkaziladi.

Ixtisoslik bo'yicha kirish imtihonlar har bir ixtisoslik uchun ta'kidlangan qabul talablariga muvofiq ravishda o'tkaziladi. Ixtisoslik bo'yicha imtihon o'tkazilishining ketma-ketligi har bir oliy o'quv yurtining qabul komissiyasi tomonidan o'rnatiladi va har yili qabul qilish qoidalari ko'rsatiladi.

Mazkur ta'lif yo'nalishini bitirganlar professional teatrlarda, madaniyat va san'at muassasalarida, madaniyat va sport ishlari boshqarmasida ixtisolikka mos lavozimlarda ishlashi mumkin.

Dasturdan joy olgan fanlar boyicha nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar teatr va san'atning boshqa sohalariga, malaka talablari va namunaviy dasturlar asosida aktyorlarni egallashi lozim bo'lgan talablar asosida barcha tizimlarga va barcha talablarga mos keladi.

Yugoridagilardan hulosa qilib 60211100-Aktyorlik san'ati (musiqali teatr aktyorligi) kunduzgi ta'limda OTMga kirish uchun tuzilgan mahsus dasturni amaliyotga tavsiya etaman.

**O'ZDSMI "Estrada va ommaviy tomoshalar san'ati"  
kafedrasini professori, san'atshunoslik fanlari nomzodi**

**M.R.Yusupova**

**60211100-Aktyorlik san'ati: (musiqali teatr aktyorligi) ta'lif  
yo'nalishidagi "Kasbiy (ijodiy) imtihonlar dasturi va baholash mezoni" professor  
v.b R.Usnatov, dotsent Sh.Muhammadiyevlar tomonidan tuzilgan dasturiga  
tashqi  
TAQRIZ**

Dasturini tuzishda mualliflar sohaning o'ziga xos yo'nalishlari, usul va uslublari aniq ko'rsatib o'tganlar. O'qishga kirayotganlar ijodiy va tashkiliy ishlarga qobiliyatli, hamda yuksak ijodkorlik, ijrochilik, tashkilotchilik, yo'nalishidagi fikrlash qobiliyatiga, asarni tanlash va sahnalashtirilishida zaruriy jihatlarni bilish, tushunish, his qilish qobiliyatiga ega bo'lishi talablari dasturda keltirilgan.

Dastur ijro etiladigan asarlar bir-biridan janr va mazmuni bo'yicha ajralib turishi kerakligi, bu narsa abituriyentning qobiliyatini va ijodiy diopazonining kengligini chiqarishga imkoniyat yaratilishiga qaratilgan, mualliflar yetuk mutahassis kadr tayyorlashda zarur bo'lgan boshqa talablarni xam qamrab olishga xarakat qilganlar.

O'qishga kiruvchi shaxs uchun dasturdagi barcha talablar sodda va tushunarli qilib tuzib chiqilgan.

Aktyorlik maxorati fanining yordamchi fanlari bo'lmish Saxna nutqi, Vokal fanlarining talablari ham aniq ishlab chiqilgan. Mazkur fanlar Aktyorlik mahoratining fundamental fani xisoblanadi. Sanab o'tilgan jihatlarni amaliy nuqtai nazardan o'r ganmay turib, aktyorlik maxoratiga ega bo'lish mumkin emas.

Dastur "Musiqali teatr san'ati" kafedrasi mudiri, dotsent Sh.Muhammadiyev va professor v.b R.Usnatovlar tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu "Kasbiy (ijodiy) imtixonlar dasturi va baholash mezoni" dasturini mutaxassis sifatida barcha talablarga mos keladi deb hisoblayman va uni tasdiqlash uchun tavsiya qilaman.

**O'zbekistonda xizmat  
ko'rsatgan artist**



**A.S.Bekjonov**